

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Nasretdinov Nodir Tulqinovich

“Yashil energiya” MChJ rahbari

Energiya samaradorligini oshirish – jahon miqyosida muhim iqtisodiy va ekologik vazifa hisoblanadi. Dunyo energetika tizimidagi inqirozlar, energiya narxlarining keskin oshishi va ekologik muammolarning kuchayishi sababli, barcha davlatlar energiya tejash siyosatini davlat dasturlariga aylantirmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik toza ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarkibida sanoat sektori yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Biroq mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi va energetika infratuzilmasining samarasizligi tufayli mamlakatda energiya iste’moli hajmi jahon standartlaridan yuqori darajada bo‘lib qolmoqda. Bu esa raqobatbardoshlikni pasaytirib, ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishga olib kelmoqda. Ushbu holat O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tezisda O‘zbekiston sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish yo‘lida mavjud muammolar, ularning yechimlari va ilg‘or xalqaro tajribalarni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Sanoat korxonalarida energiya samaradorligi: muammolar va yechimlar. O‘zbekiston sanoatida energiya samaradorligini oshirish zarurati ko‘plab sabablarga asoslangan. Mamlakatdagi ko‘plab korxonalarning ishlab chiqarish jihozlari va texnologiyalari Sovet davridan qolgan bo‘lib, ularning eskirishi sababli energiya sarfi yuqori bo‘lmoqda. Korxonalarning aksariyat qismida energiya auditi va monitoring tizimlarining joriy qilinmaganligi energiya sarfi ustidan samarali nazoratni amalga oshirishga imkon bermayapti.

Mazkur muammoni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Birinchidan, eskirgan texnologiyalar sababli energiya samaradorligining pastligi asosiy muammo sifatida ajralib turibdi. Ayniqsa, metallurgiya, kimyo, sement va to‘qimachilik sanoatida energiyani ko‘p talab qiluvchi uskunalar keng qo‘llaniladi. Shu sababdan davlat tomonidan korxonalarga yangi texnologiyalarni xarid qilishda subsidiyalar ajratish, imtiyozli kreditlarni kengaytirish zarur. Texnologiyalarni modernizatsiya qilish orqali energiya sarfini o‘rtacha 20-30 foizga kamaytirish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, sanoat korxonalarida energiya auditi va monitoring tizimlarining yetarli emasligi muammo sifatida mavjud. Energiya auditi energiyani tejash imkoniyatlarini aniqlash va energiya boshqaruvi tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois har bir sanoat korxonasida energiya auditi o‘tkazishni majburiy tartibga aylantirish hamda audit natijalari asosida energiyani tejash bo‘yicha rejalar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Uchinchidan, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish uchun malakali mutaxassislar talab yuqori bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda yetarli ish olib borilmayapti. Shu sababli oliy ta‘lim muassasalari va kasb-hunar ta‘limi tizimida energiya samaradorligi va energiya tejovchi texnologiyalar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlari joriy etilishi kerak. Korxonalar xodimlari uchun muntazam treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, xalqaro tajribalarni o‘rganishga imkon yaratish samarali natijalar beradi.

To‘rtinchidan, davlat tomonidan energiyani tejash sohasida moliyaviy va huquqiy rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi energiya samaradorligini oshirish loyihalarining keng miqyosda amalga oshirilishiga to‘siq bo‘lmoqda. Shuning uchun davlat tomonidan energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratilishi tizimini kengaytirish zarur. Mazkur chora-tadbirlar orqali korxonalarning yangi texnologiyalarni joriy qilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Energiya samaradorligini oshirish samaradorligining baholash modeli:

Murakkabroq tizim sifatida “Energiya samaradorligini baholash va tahlil qilish indeksi” (Energy Efficiency Evaluation and Analysis Index - EEEAI) tavsiya etiladi. Ushbu indeks quyidagi omillar asosida shakllanadi:

- Energiya sarfining dinamikasi: Yillik energiya sarfining kamayishi % ko‘rinishida.
- Texnologik modernizatsiya ko‘rsatkichi: Modernizatsiya qilingan jihozlarning umumiy ishlab chiqarish quvvatidagi ulushi (%).
- Audit va monitoring tizimi samaradorligi: O‘tkazilgan auditlar soni, amalga oshirilgan energiya tejovchi loyihalar soni.
- Mutaxassislar malakasining oshishi: Treninglarda ishtirok etgan xodimlarning umumiy xodimlar soniga nisbati (%).

Har bir ko‘rsatkich 0 dan 10 ballgacha baholanib, umumiy indeks 40 ball tizimida hisoblanadi. Indeks natijalari bo‘yicha korxonalar energiya samaradorligining yuqori, o‘rta yoki past darajalariga ajratilib, qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari belgilanadi.

O‘zbekiston sanoatida energiya samaradorligi imkoniyatlari:

- Umumiy sanoat energiya sarfi mamlakat energiya iste‘molining 35% ni tashkil qiladi.
- Texnologik modernizatsiya orqali energiya sarfini 30% ga kamaytirish mumkin.
- Energiya auditi joriy etilishi bilan energiya tejash imkoniyati 25% gacha yetadi.
- Xodimlarning malakasini oshirish energiya samaradorligini qo‘shimcha 10-15% ga yaxshilaydi.

O‘zbekiston sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. Texnologik yangilanish, energiya auditi, mutaxassislarni tayyorlash hamda davlatning moliyaviy-huquqiy rag‘batlantirish mexanizmlari orqali sanoat korxonalarida sezilarli darajada energiya samaradorligini oshirish mumkin. Shu orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi va ekologik vaziyat yaxshilanadi.